

SUD TIBBIYOTI FANIDAN AMALIY KO`NIKMALARNI O`RGATISHDA SIMULYASION TA'LIMNI AFZALLIKLARI

**Oydinov Azizjon Ergashevich, Rajabov Shuxrat Yunusovich, Sultanova Norjon
Davletovna**

Xaldarov Davron Baxramovich.

Alfraganus University, Tashkent, Uzbekistan.

Annotatsiya. O'quv jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni xalqaro ekspertlarning tajribasini joriy etish, bugungi kunning talabi, bu esa o'z navbatida raqobatdosh kadrlar tayyorlashga imkoniyat yaratadi. «Simulyatsion o'qitish» bu real xayotga imkon qadar yaqin bir muhitda professional faoliyatni o'xshatib ishlash. Oliy ta'lim muassasasida qo'llaniladigan simulyatorlarda amaliy ko'nikmalarni o'rgatish – kelajakdagi professional faoliyatda mutaxassis to'qnashish mumkin bo'lgan vaziyatlarda talabalarning amaliy ko'nikmalarni samarali o'zlashtirish muammosi ko'rib chiqilgan. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi tuzilishi tarifi taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: sud tibbiyoti, amaliy ko'nikma, murda, tirik shaxslar, ashyoviy dalillar.

O'zlashtirilishi lozim bo'lgan imitatsion ta'lim (SIM) standartli modullari alohida treninglar sifatida amalga oshirilishi va yoki yanada keng imitatsion ta'lim dasturining tarkibiy qismi bo'lishi mumkin. SIM faqat amaliy mashg'ulotlarni ko'zda tutadi. Bir mavzu bo'yicha o'qitish uchun bir nechta SIM qator amalga oshirilishi mumkin. Har bir amaliy ko'nikma tekshiruv obyekti oldida amalga oshiriladi. Mazkur o'qitish usuli amaliy ko'nikmalarni bajarish bo'yicha, shu jumladan, ushbu amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish va bo'lajak shifokorning amaliy faoliyatida ularni to'g'ri va aniq bajarish imkonini beradi.

Tibbiyot fanlari, jumladan sud tibbiyoti bo'yicha dars berish jarayonida zamonaviy innovatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish majburiydir. Dars berish jarayoni, o'qituvchi va talabalarning faoliyatiga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

- Nazorat o'tkazishda yuqori darajada ko'rgazmalilik ta'minlanishi, bu esa fanga, nazoratga va baholashga qiziqishni oshiradi;
- Nazorat jarayonlarini avtomatlashtirish, natijalarni baholash va yakuniy xulosalar chiqarish;
- Bilimlarni o'zlashtirish maqsadida nazorat topshiriqlarini ko'p marta bajarish imkoniyati;

➤ Internet va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda mustaqil tayyorgarlik ko‘rish imkoniyati.

Xozirgi davrda amaliy ko‘nikmalari o‘zlashtirish va takomillashtirishda realistik model asosida o‘qitishni ahamiyati katta. Murda, tirik shaxslar, ashyoviy dalillar bilan bog‘liq bo‘lgan amaliy ko‘nikmalarni trening ko‘rinishida o‘tkazish an’anaviy o‘qitishdan farqli bir qator afzalliklarga ega. Oldindan trening o‘tgan talabalar kam xatolikga yo‘l qo‘yadilar; mashg‘ulotlar davomiyligi tashqi omillarga bog‘liq emas va qulay vaqtda o‘tkazilishi mumkin; mashqlarni takrorlash chegaralanmagan; kam uchraydigan patologiya xolatlarini va yordam berishlar imitatsiyasini o‘tkazish cheklanmagan; birinchi marta o‘tkazilayotgan mustaqil amaliyotlarda stress kam bo‘ladi; mutaxassisni tayyorlik darajasi obyektiv baholash imkonini beradi; obyektiv baholash testdan o‘tkazish uchun keng imkoniyatlar yaratadi, malakaviy amaliyot bemor uchun xavfsiz sharoitda o‘tkaziladi. Taklif etilayotgan o‘qitishni zamonaviy usullari sud tibbiyoti tekshirishning asosiy amaliy ko‘nikmalarini o‘zlashtirish uchun mo‘ljallangan. O‘lim sodir bo‘lgan muddatlarini aniqlash, murda erta va kechki o‘zgarishlarini, mexanik jarohatlarni sud-tibbiy baholash, mexanik asfiksiya, zaxarlanish holatlarida tekshirish usullari va boshqalar, shuningdek, sud-tibbiy ambulatoriya bo‘limida jabrlanuvchilarni ekspertizadan o‘tkazish tartibi kabi amaliy ko‘nikmalarni egallash imkonini beradi.

O‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan imitatsion ta’lim (SIM) standartli modullari alohida treninglar sifatida amalga oshirilishi va yoki yanada keng imitatsion ta’lim dasturining tarqibiy qismi bo‘lishi mumqin. SIM faqat amaliy mashg‘ulotlarni qo‘zda tutadi. Bir mavzu bo‘yicha o‘qitish uchun bir necha SIM qator amalga oshirilishi mumqin. Har bir yil trening shaqlida amalga oshiriladi. Mazkur o‘qitish usuli amaliy ko‘nikmalarni bajarish bo‘yicha yaxshi o‘zlashtirish va shifokorning amaliy faoliyatida ularni to‘g‘ri va aniq bajarish imkonini beradi.

Xulosa:

1. Zamonaviy ta’lim sifatini oshirish talablari doirasida oliy o‘quv yurtlarida yangi pedagogik texnologiyalarni yaratish va o‘quv jarayoniga joriy etish kiradi.
2. Fan bo‘yicha syllabus kiritilgan muammoga yo‘naltirilgan pedagogik o‘yinlari sud tibbiyoti bo‘yicha o‘quv materiallarini o‘zlashtirish samaradorligini oshiruvchi interaktiv ta’lim usulidir.
3. Amaliy mashg‘ulotlar uchun pedagogik o‘yinlarining asosiy xususiyati talabalar bilish faolligini uyg‘otish, mustaqil fikrlash va faoliyatni shakllantirishga yordam berishdan iborat. Pedagogik o‘yining kuchli tomoni shundaki, u jamoada ishlash ko‘nikmasini rivojlantiradi, kasbiy muhit sharoitlarini modellashtiradi, ta’limda

faoliyatga asoslangan kompetentsiyalar yondashuvini amalga oshiradi va talabalarni axborot texnologiyalaridan foydalangan holda mustaqil ishlashga tashkil etadi.

4. Taklif etilayotgan ta'lim usulini o'quv jarayoniga joriy etish samaradorligini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, muammoga yo'naltirilgan ishbilarmonlik o'yinlari yordamida mashg'ulotlar o'tkazish mavzularni yaxshiroq anglashga, talabalar amaliy ko'nikmalari va kelajakdagi kasbiy tasavvurlarini shakllantirishga imkon beradi.

Amaliy tavsiyalar:

1. Keyslarni yaratish uchun oliy o'quv yurtining metodik kabinetida mavjud bo'lgan syllabusa va keyslarni tuzish bo'yicha metodik ko'rsatmalardan foydalanish lozim.

2. Mashg'ulotlarni metodik materiallar bilan yaxshiroq va to'liq ta'minlash uchun to'liq va tuzilmasiz keysdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ushbu keys ko'plab ma'lumotlarni o'z ichiga oladi va talabalarni tezkor fikrlashga, asosiy ma'lumotni ikkinchi darajali ma'lumotlardan ajrata olishga va zaruriy ko'nikmalarni o'zlashtirishga yordam beradi.

3. Keyslar jamoaviy ishlash uchun mo'ljallangan bo'lib, ularda barcha didaktik material, shu jumladan, mashg'ulot mavzusiga oid muammoga yo'naltirilgan ishbilarmonlik o'yinlari mavjud bo'lishi kerak. Bu talabalarni haqiqiy amaliy faoliyatga maksimal darajada yaqinlashtirish imkonini beradi.